

“Davlat maktablari davlat qonunlariga tupurganmi” mazmunidagi (Qarshi shahridagi 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati nazarda tutilgan) tanqidiy murojaat yuzasidan

RASMIY MUNOSABAT

Telegram messenjeridagi Otabek Artikov hamda boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarda tarqalayotgan “Davlat maktablari davlat qonunlariga tupurganmi” mazmunidagi (Qarshi shahridagi 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati nazarda tutilgan) tanqidiy murojaat yuzasidan Prezident ta’lim muassasalari agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy bo’limi quyidagilarni ma’lum qiladi:

Holat mas’ullar ishtirokida atroflicha o’rganildi. O’rganish davomida o’quvchilarning ota-ona (yaqin qarindosh)lari o’quvchilarning maktab formasi bo’yicha erkin fikrlarini bildirib o’tishdi.

Ma’lum bo’lishicha, maktab-internatning matematika fani o’qituvchisi X.X(erkak kishi) Telegram messenjeridagi “...7-“V” sinf o’quvchilari...” guruhida joriy yilning 19-sentyabr sanasida maktab formalarini kiyim bozorlari yoki tikuv sexidan olishlari yuzasidan tavsiyaviy taklif berilgan. Qayd etish lozimki, ushbu tavsiyaviy mazmundagi topshirig’dagi maktab-internati formasini umumiy qiymati 1.415.000 (Bir million to’rt yuz o’n besh ming)ni tashkil etgan. Ushbu tavsiyaviy ahamiyatga ega forma (shim, galstuk, oq ko’ylak, yozgi, qishgi ko’ylak (qo’shimcha) oyoq kiyim (makas), kostyum (peydjak), sport ko’ylak (fudbolka), sport forma (to’liq...)larni 11 xildagi 13 tur mahsulotlarini o’z ichiga oladi.

Sinf rahbari X. X.ni bildirishicha, maktab formasini qat’iy tartibda sotib olinish topshirig’i berilmaganligi va ayrim ota-onalar batafsil ma’lumotga ega emasligini bildirib o’tgan.

Eslatib o’tamiz, o’quvchilarni maktab formalarini bilan ta’minlanishi va ularni sotib olishida qat’iy talab qo’yilmaganligini ma’lum qilamiz. Shuningdek, mas’ullar tomonidan maktab-internatida ta’lim-tarbiya oluvchi o’quvchilar hamda ularning ota-onalari ishtirokida suhbatlashildi. O’quvchilar uchun tavsiyaviy ahamiyatga ega maktab formalari aslida ixtiyoriy bo’lib, ushbu formalarga majburiy tartibda o’tilishi qat’iyan taqiqlanishini ma’lum qilamiz. Ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgandan so’ng, maktab-internati o’quvchilari o’rtasida yana takroriy og’zaki so’rovnoma o’tkazildi. Unda maktab formalarining narxi, qulayligi va to’rt faslga mo’ljallab kompleks tikib tayyorlangani bois ota-onalar va o’quvchilar tomonidan maqbul deb qabul qilindi(og’zaki so’rovnoma asosida).

Qayd etish lozimki, O’zbekiston Respublikasi Prezident ta’lim muassasalari agentligining 2022-yil 26-avgustdagi №88-AF sonli buyrug’ida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son hamda O’zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta’minlash to‘g‘risida ” 2018-yil 15-avgustdagi 666-son qarorlariga muvofiq agentlik buyrug‘ining 9 ta bandida tavsiyaviy tartiblar ko‘rsatib o‘tilgan.

Hurmatli ota-onalar!

Maktab formasi bo‘yicha narxlar bozor sharoitidan kelib chiqib, ota-onalar istalgan hudud yoki tikuv sexlaridan kiyim-bosh sotib olishlari mumkin (tavsiyaviy asosda). Maktab internat mas’ul o‘qituvchilari (sinf rahbarlari) tomonidan majburiy tartibda maktab formasining sotib olinishi yuzasidan biror-bir pul yig‘imlari yoki qonunan taqiqlangan talablarga zid ravishda jarayonlarni guvoh bo‘layotgan bo‘lsangiz, maktab-internat rahbariyatining **99-561-12-82** raqamlariga murojaat qilishingiz so‘raladi. Murojaatda keltirilgan vajlar va asoslar hamda murojaatchining shaxsi sir tutilishini ma’lum qilamiz.

Prezident ta’lim muassasalari agentligining

Qashqadaryo viloyati hududiy bo‘limi